

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

**Boshlang'ich sinf o'quvchilariga xorijiy tillarni interfaol usullar orqali
o'rgatish**

Adashboyeva Maxliyo Olim qizi

maxliyo@dashboyeva@gmail.com

+998-33-403-21-03

SamDCHTI 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada kichik yoshdagi bolalarga chet tillarini o'rgatishda integrallashgan usullardan foydalanish hamda shu yoshdagi bolalarga xorijiy tillarni o'rgatishda turli xildagi ilmiy metodologik usullardan foydalanish haqida atroflicha ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: xorijiy til, metodika, integrallashgan metod, grammatika, o'yinlar, boshlang'ich sinf o'quvchilari.

Xorijiy tillarni o'rganish bugungi kunda davr talabiga aylanib ulgurdi. Shu sababli mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng chet tillarini o'rganish uchun yaratilayotgan imkoniyatlar yildan yilga yaxshilanyapti va o'rganuvchilar soni ham oshib bormoqda. Negaki, xorijiy tillarni bilgan yoshlar uchun chet davlatda ishlash va dunyodagi eng nufuzli oliy ta'lim dargohlarida o'qish uchun imkoniyatlar yaratilgan. Bundan tashqari IELTS va Multilevel kabi imtihonlardan belgilangan va undan yuqori ballni olgan abituriyentlar O'zbekiston Respublikasi Davlat Oliy Ta'lim muassasalariga o'qish uchun hujjat topshirmoqchi bo'lsa, shu fandan test sinovlariga qatnashmasdan eng yuqori ballni qo'lga kiritish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ayniqsa ingliz tili bu borada birinchilikni egallayapti. Yurtimizda chet tilini o'qitishga bo'lgan e'tibor maktabgacha ta'limdan boshlanadi. Bog'cha yoshidagi bolalarning xorijiy tilga bo'lgan qiziqishlari turli xil interfaol usullar orqali orttirilib bo'shlang'ich bilim va ko'nikmalar shakllantiriladi. Bog'cha yoshidagi va boshlang'ich sinf o'quvchilariga chet tillarini shu jumladan ingliz tilini o'rgatish o'qituvchidan ijodkorlikni talab qiladi.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Chunki bu vaqt bolalarning eng aktiv davri hisoblanadi va ko'proq harakatli hamda jamoaviy o'yinlardan foydalanish kerak deb hisoblayman. Bu yoshdagi bolalar uchun til o'rgatishni grammatik qoidalardan boshlamaslik lozim, bu o'quvchilarning fandan qiziqishlarni so'ndirishga olib kelishi mumkin. Kichik yoshdagi bolalarga til o'rgatishni lug'at yodlash, multfilim ko'rish va suhbat davomida kerak bo'ladiqan qisqa-qisqa gaplarni yodlatish orqali o'rgatish anchagina samaraliroq. Bunda multfilmlardagi so'zlar oson, qisqa va tushunarli bo'lishi kerak. Yuqoridagi yoshdagi bolalarga turli xil mashg'ulotlar uchun A1 darajadan foydalanish tavsiya etiladi. Sababi 1-4-sinf o'quvchilarining darajasi A1ga to'g'ri keladi. Yana bir muhim jihatni mashg'ulotlar aktiv usulda olib borilishi lozim, passiv usuldagagi mashg'ulotlar o'rgangan ma'lumotlarning tezda esdan chiqishiga olib keladi. Tosheva Ruxshona o'z maqolasida aytib o'tganidek "6-7 yoshdagi bolalar sozlarning ma'nosini tushunib emas mexanik yodlaydi". Shu sababli ularga so'zlarning grammatik ma'nolarini va mazmunini o'rgatish o'rniga shunchaki so'zlarni mexanik usulda yodlatgan ma'qul deb hisoblayman. Yana bir muhim tomoni o'qituvchilar darsni video, audio va turli xildagi ko'rgazmali materiallar asosida olib borsa dars yanada qiziqarliroq bo'ladi. O'qituvchi dars uchun metod tayyorlayotganda o'quvchilaring o'rganish usullarini ham inobatga olish lozim. Ba'zi o'quvchilar harakatlar, teginib, ushlab ko'rish orqali o'rgansa, ba'zi o'quvchilar videolar ko'rish orqali oson o'rganadi.

Endigma til o'rganishni boshlagan kichik yoshdagi bolalar uchun lug'at qismi asosiy hisoblanadi va bunda ma'lum mavzular asosida guruhlangan so'zlarni iloji boricha rasmlar orqali o'rgatish samaraliroq. Masalan, dastlab, "Fruits"(mevalar) mavzusini olib hamma mevalarni rasmlari bilan inglizcha nomlanishini ko'rsatib, keyin faqatgina rasmlarini ko'rsatib nomlarini topishni o'quvchilardan so'rash orqali ham boshlang'ich sinf o'quvchilariga so'zlarni yodlatish mumkin va bunda talaffuz ham muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilmasliklari uchun avval o'qituvchi hamma so'zlarni bittama-bitta talaffuz qilib berishi va zarur bo'lgan hamda tez-tez duch keladigan talaffuz qoidalarini sekin astalik bilan o'rgatib borishi lozim.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Eshitib tushunish (listening)ni boshlang'ich sinf o'quvchilarida multfilmlar va qo'shiqlar orqali o'stirish kerak va shular asosida bo'ladigan savol-javoblar o'quvchilarning gaphirish (speaking) mahoratini yaxshilashga xizmat qiladi. O'qib tushunish (reading) uchun esa ertaklar va yosh bolalar uchun aloqador bo'lган mavzudagi matnlar orqali yaxshilash mumkin. Yozish (writing) mahoratini esa ana shu o'qigan ertaklari yoki ko'rgan multfilmlariga kichik-kichik xulosalar yozish orqali shakllantirish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kichik yoshdagи bolalar bilan ishslash o'qituvchidan kasbiy mahorat talab qiladi. Bu yoshda bolalarda tilga bo'lган qiziqlichlari yetarlicha shakllantirilmasa bola fanga qiziqlmay qo'yishi va til o'rganishi susayishi mumkin. Shu sababli o'qituvchilar ananaviy darslardan chetlashgan holda turli xildagi zamonaviy va qiziqarli interfaol usullar orqali dars o'tsa dars anchagina samarali bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://cyberleninka.ru>
2. <https://intereuroconf.com>
3. <https://www.coferencepublication.com>
4. Qurbanaliyeva N. Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitishning innovatsion usullari. "SCIENTIFIC PROGRESS".439-b
5. Zubaydova N.N. The teaching of English for specific purposes.2019.